

## Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi



### 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3222,5 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **115,7 % ni** tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o'rtacha **1267,8 ming.so'mga** yetdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **38,6 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o'rtacha **489,8 ming.so'mga** to'g'ri keldi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **47,1 % ni** tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalaridan 3222,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 15,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 17,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 20,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 12,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

#### **2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



## 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi







### ***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 169,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan - 2,5 martaga, tabiiy qum - 2,7 martaga, ko'mir – 46,6 % ga oshgan bo'lsa, neft mahsuloti o'tgan yil darajasida qoldi. Shu bilan birga qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari) hajmining - 50,6 % ga va neft va tabiiy gaz qazib olish bo'yicha xizmatlar – 12,9 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.




**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
123,5	<p><b>Ko'mir, ming t.</b></p> 	181,0	146,6 ↑
85,2	<p><b>Neft, ming t.</b></p> 	85,2	100,0 ↑↓
24,8	<p><b>Osh tuzi, ming t.</b></p> 	7,2	28,8 ↓
13,1	<p><b>Qum, ming t.</b></p> 	36,0	2,7m ↑
17,6	<p><b>Chaqiq tosh, ming t.</b></p> 	44,7	2,5m ↑


### Ko'mir, ming t.



### Neft, ming t.



### Tuz, ming t.





**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3222,5 mlrd.so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,7 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,3 % ni (2017 yil yanvar-dekabr oylarida - 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 22,2 % (23,4%) va quyi texnologiyali - 64,9 % (62,0 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



- Boshqa faoliyat turlari
- Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)
- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

Viloyat bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga quyi texnologiyali ishlab chiqarish sezilarli hissa qo'shgan holda 64,9 % ko'rsatkich bilan 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati 33,2 % (101,6 foiz) ni, tekstil sanoati 30,9 % (157,0 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati 11,6 % (90,3 %) ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2824,4 mlrd.so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,3 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,3 % ni (2017 yil yanvar - dekabr oylarida – 37,0 %), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish 30,9 % ni (22,8 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,6 % ni (11,4 %) va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,4 %ni (9,0 %) tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
13,8	 <p>Dizel yoqilg'isi, ming t.</p>	11,7	85,2 ↓
103,9	 <p>Un, ming t.</p>	101,1	97,3 ↓
2228,3	 <p>Aroq, ming l.</p>	1902,8	85,4 ↓

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

**Qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar, ming t.**

1,7



5,1

3,1m ↑

**Paxta tolasi, ming t.**

144,6



186,6

129,1 ↑

**O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.**

11,7



12,9

110,4 ↑

**Qayta ishlangan yoki konservalangan sabzavotlar, ming t.**

3,0



4,2

140,5 ↑





***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 182,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazzimon

yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 11,4 % ga, issiqlik elektr stantsiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi – 27,9 % ga oshganligi va boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi) pasayganligi (91,7 %) kuzatildi.

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b>			
1,5		1,9	127,9 ↑
<b>Issiqlik energiyasi, ming Gkal</b>			
79,6		72,9	91,7 ↓

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 46,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni





yo'qotish bo'yicha xizmatlar qariyb 3,0 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 52,5 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 0,4 % ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar hajmining (38,6 %) pasayganligi kuzatildi.


***Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b><i>Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna</i></b>			
13,0		13,1	100,4 ↑
<b><i>Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm</i></b>			
10145,8		15470,7	152,5 ↑
<b><i>Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm</i></b>			
5294,8		2046,1	38,6 ↓

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1245,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,1 % ga o'sishi ta'minladi. Jami sanoatdagi ulushi esa 38,6 % ni tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 57,2 % dan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 58,2 % ga oshganligi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 42,8 % dan 41,8 % ga pasayganligi kuzatilmogda.

### Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 3,1% ni (2017 yil yanvar-dekabr oylarida 4,0%) tashkil etdi.


### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 543,6 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,9 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yil darajasida qoldi.

### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.**

2017 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr



- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmini o'sishiga qo'shma korxonalarining qo'shgan hissasi 0,2 % ni tashkil etdi.

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 19,3 % ni tashkil etdi.

### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jarqo'rg'on tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,0 %), Termiz shahri (15,9 %), Denov tumani (14,2 %), Sho'rchi tumani (10,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov tumani (jami iste'mol tovarlari hajmida 22,2 %), Termiz shahri (15,5 %), Sho'rchi tumani (11,8 %) da ishlab chiqarildi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar Qiziriq (2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan 146,6 %), Sho'rchi (129,0 %), Sariosiyo (127,2 %), Qumqo'rg'on (115,7 %) va Denov (115,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Sherobod (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,2 %), Sho'rchi (110,9 %), Oltinsoy (108,2 %) tumanlarida iste'mol tovarlarini sezilarli darajada oshdi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish va istemol mollarning o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Termiz shahrida (3540,2 ming so'm) va Jarqo'rg'on (3215,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1267,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 489,8 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida 1332,8 ming so'mni, Termiz tumanida 788,4 ming so'mni, Sho'rchi tumanida 735,2 ming so'mni, Denov tumanida 725,1 ming so'mni tashkil etdi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarning o'sish sur'atlari**



**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Kichik biznes sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 47,1 % tashkil etmoqda.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun (99,9 %), Termiz (83,9 %), Sherobod (71,9 %) tumanlarida, shu bilan birga eng kichkina ulush Sho'rchi (24,5 %), Qumqo'rg'on (31,8 %) va Jarqo'rg'on (35,4 %) tumanlarida kuzatildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (71) 230-85-76